

AJDODLARIMIZ MEROSIDA MA'NAVIY BARKAMOLLIK  
TO'G'RISIDAGI G'OYA VA QARASHLARNING MOHIYATI*Fayziev Yaxshi Ziyoevich**dotsent, Buxoro davlat pedagogika instituti  
«Jismoniy madniyat nazariyasi va uslubiyoti»  
kafedrasi mudiri v.v.b.**Oripova Mohina Nishod qizi**Buxoro davlat pedagogika instituti  
Jismoniy madaniyat fakulteti 2 kurs magistri*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ajdodlarimizning buyuk merosida aks etgan, ma'naviy barkamollik to'g'risidagi g'oya va qarashlarning mohiyati ochib berildi.

**Kalit so'zlar:** sog'lom avlod tarbiyasi, sog'lom turmush tarzi, aqliy-ma'naviy, aqliy, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy va siyosiy bilimlar.

Inson uchun in'om etilgan oliy ne'mat - salomatlik hisoblanadi. Mustaqillik yillarda sog'lom avlod tarbiyasining tamoyillari milliy mafkura va milliy o'zlikni anglash jarayonlari bilan bog'liq ravishda qayta ko'rib chiqildi va shakllantirildi. Bu vazifani amalga oshirishda ta'lim-tarbiya jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, aynan sog'lom avlod tarbiyasi va uning negizida ma'naviy-axloqiy fazilatni shakllantirish jarayoni jamiyat taraqiyotining hamda yurt ravnaqining poydevori hisoblanadi.

Asrlar davomida shakllanib, sayqal topib kelgan sog'lom avlod tarbiyasidagi shaxsning har tomonlama yetuk inson bo'lishiga qaratilgan e'tibor hozirgi davrda ham o'z mavqeini saqlab kelmoqda. Shu ma'noda respublikamizning birinchi Prezidenti I.A.Karimov yosh avlod tarbiyasini quyidagicha ta'rifladi: "Yurtimizda yashayotgan har bir bolaning o'ziga xos qobiliyati va iste'dodini o'z vaqtida payqash, tarbiyalash va ruyobga chiqarish bu o'ta muhim vazifani nafaqat ota-onalarning ezgu maqsadi, balki jamiyatimizning burchi sifatida o'rtaga qo'yish kerak deb hisoblayman". Bu o'z navbatida jamiyatni demokratlashtirish bilan bog'liq bo'lgan barcha jarayonlar tarkibiga sog'lom va barkamol avlod tarbiyasining markaziy vazifalaridan biri sifatida o'rganilishini taqazo etadi.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatni qurish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar izchil va bosqichma-bosqich olib borildi. Ma'lumki, so'nggi qator yillar mobaynida har bir yilni yurtboshimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda muayyan soha, qadriyat yoki yo'nalishga ustuvorlik ahamiyatini berish amaliyoti an'anasi qaror topdi. Agar bunga kengroq ma'noda qaraydigan bo'lsak, har bir yil uchun beriladigan ustuvorlikning asosiy maqsadi – har tomonlama rivojlangan insonni kamol toptirish, yosh avlodni insoniylikka yetaklovchi ma'naviy-axloqiy va ruhiy jihatdan sog'lomlashtirishga qaratilganligini ko'ramiz. Bular shunchaki tadbirlar majmui deb qaralmasligi, balki muammolarni izchil hal etish strategiyasi deb o'rganilishi zarur deb hisoblaymiz.

Ma'lumki, insoniyatning hayot faoliyatiga taa'luqli bo'lgan barcha oljanob va ezgu niyatlar ta'lim-tarbiya jarayonida shakllanib, ular demokratik jamiyatning barpo etilishiga ulkan hissa qo'shadi. Aynan shu vazifalarni hayotga tadbiq etishda, ya'ni



jamiyatda haqiqiy insonni kamol toptirishga oid bo‘lgan muammolarda - mulk egaligini shakllantirish, aholining ish bilan bandligini ta’minlash, adolatli qonunlarga tayangan holda keng xalq ommasining farovon va xavfsiz hayot kechirishini ruyobga chiqarish - demokratik jamiyatda sog‘lom muhit va sog‘lom avlodni kamol toptirishning asosiy omili hisoblanadi.

Shuni ta’kidlash joizki, xalqimizda isbot talab qilinmaydigan maqol mavjud: “Sog‘ tanda - sog‘lom aql” Bizning fikrimizga binoan, bu ibora xulosa sifatida umumlashtirilgan kategoriya hisoblanadi. Uning xaqiqat ekanligini isbotlash maqsadida inson ayniqsa yosh avlod o‘zining sog‘ligini ta’minlash uchun bиринчи navbatda sog‘lom turmush tarzini shaxsiy hayotga joriy etishi va turli illatlardan holi bo‘lishga intilishi zarur. Shu kabi ijobjiy omillarni yosh avlod tarbiyasiga singdirib borish hisobiga ularning sog‘lom o‘sishiga va pirovard maqsadimiz - Vatan taraqqiyoti yo‘lida faol mehnat qilishiga zamin yaratgan bo‘lamiz.

Inson salomatligi - ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy, pedagogik - psixologik, fiziologik va tibbiy kategoriya sifatida insonning, shu jumladan yosh avlodning jismoniy, aqliy ma’naviy - axloqiy jihatdan kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada “El sog‘ligi - yurt boyligi” degan maqol bejiz aytilmagan deb hisoblaymiz. Shu ma’noda, bu masalaning mazmun va mohiyati quyidagi iborada o‘z aksini topgan: “Sog‘lom xalq, sog‘lom millat, sog‘lom inson ulug‘ ishlarga qodirdir”. Albatta bu ishlarni ruyobga chiqarish, ya’ni yosh avlodni shu ruhda tarbiyalab voyaga yetkazishda ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituvchilar jamoasiga katta ma’suliyat yuklatiladi.

Shunday qilib, sog‘lom va barkamol avlod tarbiyasini ro‘yobga chiqarishda, jumladan, yosh avlodni ma’naviy - axloqiy jihatdan kamol toptirish uchun sog‘lomlashtirish ishlarini yo‘lga qo‘yish qatori, ularni ma’naviy-ma’rifiy bilimlar bilan ham boyitish zarur.

Ma’naviyat-inson axloq odobi, vijdoni-iymoni, ehtiqodi, dunyoqarashi, mafkuraviy o‘zgarishlarining bari, bir-biri bilan uzviy bog‘langan jamiyat taraqqiyotiga ijobjiy ta’sir etadigan mushtarak tizimdir.

Bizning nazarimizda, shaxs ma’naviyati - uning ongida kechadigan ijobjiy mazmunga ega o‘y-fikrlar, niyatlar, g‘oyalari, nazariya va ta’limotlar mazmunining amaliy faoliyatdagi tatbiqida namoyon bo‘luvchi ruhiy jarayondir. Shuni alohida ta’kidlash joizki, shaxs ma’naviyati asosida ijobjiy mazmunga ega bo‘lgan o‘y-fikrlar, niyatlar, g‘oyalari, nazariya va ta’limotlar mazmuniga yetishishni e’tiborga olish lozim. Chunki, shaxs ongida hamisha ham ijobjiy mazmunga ega fikrlar kechmaydi. Salbiy fikrlarga ega bo‘lish esa ma’naviyatsiz, axloqsiz inson qiyofasini ko‘rsatuvchi muhim belgidir.


Ma’naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish ijtimoiy tarbiyaning muvaffaqiyatini ta’minlovchi eng muhim omil sanaladi. Ma’naviy-axloqiy ta’lim va tarbiya o‘zaro bog‘liqlik, uzviylik, aloqadorlik hamda dialektik xarakterga ega bo‘lib, shaxs ma’naviy axloqiy kamolotini shakllantirish asosi hisoblanadi. Ma’naviy axloqiy ta’lim o‘quvchilarga ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy-axloqiy munosabatlar mohiyati to‘g‘risida tizimlangan bilimlarni berish, ularda ma’naviy-axloqiy bilimlarni egallashga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga keltirish ma’naviy-axloqiy ongini shakllantirish jarayoni bo‘lib, u izchil, uzlusiz, tizimli tarzda tashkil etilishi lozim.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy ma'naviy-axloqiy bilimlar negizida ijtimoiy faoliyatni tashkil etish borasida ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ijobiy mazmundagi ma'naviy-axloqiy sifatlarni qaror toptirish va ma'naviy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan murakkab dinamik jarayon hisoblanadi.

O'quvchi xulqi, hatti-harakatlarida ma'naviy madaniyatlikning asosiy mezonlari: insonparvarlik, mehnatsevarlik, milliy g'urur, vatanparvarlik, mehr-muruvvat, iymon, ijodkorlik, faollik, tashabbuskorlik, o'z-o'zini nazorat qilish va o'z-o'zini baholashni talab etadi. Bu talab o'quvchining Vatan, ota-onasi, do'stlari, jamoa oldidagi burchiga, vazifalariga, ta'lim-tarbiya jarayonida namoyon bo'ladigan faollik, ijodkorlik xususiyatlariga munosabati orqali amalga oshiriladi.

Buning uchun eng avvalo, inson fazilatlarining o'zaro munosabatlarini va o'rnini aniqlab olmog'i lozim. Insonning ma'naviyati uning odobi, xulqi, madaniyatida tashkil topadi.

Ma'naviyat esa aqliy, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy va siyosiy bilimlar zamirida shakllanadi. Mazkur bilimlar o'z navbatida inson ijobiy sifatlarining kamol topib, boyib borishiga olib keladi (1.1-rasmga qarang).



### 1.1-rasm. Ma`naviyat tushunchasi

O'zbek xalqining klassik adabiyoti noyob asarlari hisoblangan "Devonu lug'atit turk", "Qobusnama", "Qutadg'u bilig", "Tib qonunlari", "Xamsa", "Maxbub ul-qulub", "Nodir voqealar", "Navro'znama", "Temurnoma", "Boburnoma", "Futuvvatnomai Sultoniy yoxud javonmardlik" va shu kabi tarixiy asarlar millatning ma'naviyatini yuksaltirish, shuningdek ma'naviyatning asosini tashkil etadigan aqliy, axloqiy, mehnat, huquqiy tarbiya shakllari bilan birgalikda jismoniy tarbiya orqali komil insonni voyaga yetkazish yo'nalishida ilmiy-nazariy asosni tashkil etib, muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy qadriyatlarimizda ma'naviyatning asosiy negizi sifatida bilim va bilimdonlik juda ulug'lanadi. Bilim va zakovatning qadr-qimmati, jamiyat taraqqiyoti, shaxsning madaniy-ma'naviy, axloqiy va jismoniy kamoloti uchun ahamiyati haqida qanchadan-qancha kitoblar bitilganini, rivoyatlar aytilganini, maqollar to'qilganini hammamiz juda yaxshi bilamiz. Bilim eng katta boylik ekanligi, dunyoda undan qadrliroq narsa yo'qligi to'g'risida qadimgi hind xalqining "Kalila va Dimna", Nizomulmulkning "Siyosatnoma", Nosir Xisravning "Saodatnoma", "Ro'shnama", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibatul haqoyiq", Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat", Alisher Navoiyning "Xamsa" kabi mashhur asarlarida bir-biridan muhim, bir-biridan sermazmun fikrlar bayon etilgan.

Bizning madaniyatimiz va tariximizda insonni ilm asoslarini bilib olishga da'vat etmagan, bilimning xosiyati haqida kuyib-yonib so'zlamagan va jismoniy barkamollikka undamagan na biron ta shoir va yozuvchi, biron ta olim bo'lman, desak mubolag'a bo'lmaydi. Buning uchun loaqlal Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning, Abu Nasr Forobiyning, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinoning muborak nomlarini eslashning o'zi kifoya qiladi. Ularning qalamlariga mansub bo'lgan asarning har biri insoniyat uchun mislsiz boylik, bitmas-tuganmas xazinalar konidir.

O'zlarining aql-idroklli, tafakkur quvvati, zehn-zakovati, buyuk kashfiyotlari, ilm-fani bilan dunyoni hozirgacha ham lol qoldirib kelayotgan buyuk mutafakkirlari, fuzaloyu ulamolari benihoya ko'pligi bilan o'zbek xalqi har qancha faxrlansa, iftixon qilsa, boshini baland ko'tarib g'ururlanib yursa arziydi!! O'zbeklar nasl-nasabi, o'tmishi nihoyatda ulug' va baquvvat, ildizi juda chuqur, qadimiy xalqlardan biridir. Biz tarix maydonida kuni kecha paydo bo'lgan xalq emasmiz.

Ilm-fanga o'chlik, ma'rifatga tomon talpinish, madaniyatga tashnalik, odob-axloq qoidalari chuqur o'zlashtirib hayotga tatbiq etishga intilish, kitob mutolaasini hech qachon kanda qilmaslik, zehnini o'tkirlab, fikrini boyitib, tafakkur quvvatini oshirishga doimo shay turish-bularning hammasi o'zbek xalqiga avlod-ajdodlaridan o'tib kelayotgan buyuk an'ana, ajoyib meros bo'lib, bular uning qon-qoniga chuqur singib ketgan.

Eramizdan oldin taxminan 484(480)-431(425) yillarda yashagan yunon tarixchisi Gerodotning "Tarix" kitobida qadimgi forslar, saklar, massagetlarning ta'lim-tarbiya tarziga oid muhim ma'lumotlar berilgan. "Forslarning eng sharaflaydigan narsasi jasurlikdir", - deydi olim. Shunga ko'ra ular ko'proq o'g'il bolalardan faxrlanganlar. Podshoh ham kimning o'g'li ko'p bo'lsa, unga har yili sovg'a-salomlar yuborgan. Bundan tashqari bolalarning yoshiga ham e'tibor berishgan. O'g'il bolalarni besh yoshdan yigirma yoshigacha faqat uch narsaga: otda yurish, kamondan otish, to'g'ri so'zlikka o'rgatilgan. Bolani besh yoshgacha otasiga ko'rsatmaganlar, u ayollar tarbiyasida bo'lgan. Mabodo o'g'il bola vafot etsa, otasining qayg'urmasligi uchun shunday qilganlar.

O'g'illar hech qachon ota-onasiga nisbatan hurmatsizlik qilmaganlar. Ular bunday holatni faqat nikohsiz tug'ilgan yoki tashlandiq bolalardangina kutish mumkin, deb hisoblaganlar.

Bundan tashqari, Gerodot forslar uchun yolg‘onchilik va qarzdor bo‘lish sharmandalik hisoblangan, deydi. Ular daryolarni muqaddas sanaganlar. Shu bois daryo suviga tupurmaganlar, hatto qo‘l yuvmaganlar.

Gerodotning ushbu ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, bizning ajdodlarimiz o‘g‘il farzandlarini jasoratli, o‘z Vatanining haqiqiy himoyachisi, kuchli va botir inson etib tarbiyalashga katta e’tibor bergenlar. Yigitlar va erkaklargina emas, hatto ayollarning ham jasorat ko‘rsatganlari borasidagi fikrlar yunon faylasuflari tomonidan yozib qoldirilgan. Masalan, Plutarx fors ayollari haqida gapirib, shunday voqeani keltiradi: podshoh Kir forslarni shoh Astiag boshliq midiyaliklarga qarshi kurashga otlantirganda, ular jangda mag‘lub bo‘ladilar. Fors jangchilari shaharga qarab qocha boshlaydilar. Dushman ularni quvib, shaharga bostirib kirishiga yaqin qolganda, darvozadan ularga qarshi ayollar chiqib keladilar va yoqavayron holda shovqin ko‘taradilar: “Ey, noinsof bandalar, qayoqqa qochmoqchisizlar? Endi siz dunyoga kelgan joyingizga qaytib yashirina olmaysizlar-ku!” Forsslар ayollarning bu hattiharakatiga dosh bera olmay, qaytib jangga tashlanadilar va dushmanni orqaga chekinishga majbur etadilar.

Bu voqeaga xotira sifatida Kir shunday qonun tahsis etadi: “Bu shaharga qaysi shoh qadam qo‘ysa, har bir ayolga bittadan oltin sovg‘a qilsin”.

Yuqorida misollardan ko‘rinib turibdiki, mavjud holatlar hamda shartsharoitning o‘zi yoshlarga otta yurish, kamondan otish borasidagi bilimlarni o‘rgatish, shuningdek, ularda jasurlik, to‘g‘rilik va botirlik xislatlarini tarbiyalash lozimligini taqozo etgan. Shu bois qadimgi ajdodlarimiz bolalarni o‘z xalqining erki va yurt mustaqilligining himoyachilari etib tarbiyalaganlar.

Plutarxning yana bir o‘rinda qayd etishicha, Aleksandr Makedonskiy yerli xalqlarga yaqinlashish maqsadida makedoniyaliklar bilan mahalliy xalqlarning urfatolarini o‘zaro uyg‘unlashtirishga harakat qilgan. Shu maqsadda u o‘ttiz ming bolani ajratib olib, yunon tili va makedoniyaliklarga xos bo‘lgan harbiy san’at sirlarini o‘rgatishga buyruq bergen. Ana shu maqsadni amalga oshirishga juda ko‘p murabbiylar tayinlangan. Yunon alifbosining keyinchalik bu yurtda qabul qilinishi o‘sha davrda ko‘plab maktablar ochilgani hamda unda yerli aholi farzandlari ham o‘qitilganidan dalolat beradi.

XII asrning iste’dodli shoiri va donishmand murabbiysi Ahmad Yugnakiyning “Hibbatul haqoyiq” (“Haqiqatlar armug‘oni”) asarida ilmlи bilan ilmsizni, olim bilan johilni qiyoslab bayon etgan quyidagi fikri bunga misol bo‘ladi: “Bilim to‘g‘risida so‘zlamoqdamан, so‘zimni yaxshi tingla, bilimdon kishilarga o‘zingni bog‘la. Bilim bilan baxt-saodat yo‘llari o‘rganiladi, bilim egallab, saodat yo‘lini top. Bilimli kishi qimmatli oltindir. Johil, bilimsiz kishilar qimmatliz oltindir. Johil, bilimsiz kishilar arzimas aqcha kabi”dir. Bilimli bilan bilimsiz qachon teng bo‘ladi? Bilimli er, ayol (mard)dir, bilimsiz er, ayol (zaif)dir. Suyakka ilik, er kishiga ilm kerak. Erning ko‘rki aql, suyakning ko‘rki ilikdir. Bilimsiz iliksiz suyakdek bo‘sh-quruqdir, iliksiz suyakka esa qo‘l uzatmaydilar. Er kishi bilim o‘rganib, bilgувчи bo‘lib qoladi, bilimsiz tiriklikda ko‘rguliklar ichida qoladi. Bilimli er o‘lsa ham o‘likdir”. Ahmad Yugnakiyning bu mulohazalari, hozirgi davrimiz uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Ilmu ma’rifatning insонning qadr-qimmati va izzat-e’tiborini oshirishdagи ahamiyati Kaykovusning “Qobusnoma”sida, Yusuf Xos Xojibning “Kutadg‘u bilig”

(“Baxt keltiruvchi bilimlar”) nomli asarlarida ham o‘zining chuqur ifodasini topganligini qayd qilib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Insonni kamtar, sermulozamat, vazmin, og‘ir-bosiq qilib ko‘rsatadigan fazilat va xislatlar kishining bilimidan kelib chiqadi. Buni bizning ajdodlarimiz orasida o‘tgan ulug‘ va dono kishilar, shoir va faylasuflar ham ko‘p ta’kidlab o‘tganlar.

Ana shu yerda ulug‘ bobomiz Alisher Navoiyning “Mahbubul-qulub” asaridagi kamtarlik-tavoze’ haqidagi fikrlarini keltirib o‘tish joizdir: “Tavoze’-do‘stlik gulshanida toza gullar ochadi va chamandan oshnolik va ulfatchilik bazmiga xilma-xil gullar sochadi. Tavoze’-takabbur muxolifga muloyimlik va kamchilik yo‘lini ko‘rsatadi.

Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir va barcha xalqlar uchun yoqimlidir. U mansabdor kishilardan go‘zalroq va badavlat odamlardan hurmatliroqdir. Odobli odam o‘z tengdoshlari orasida ham tahsinga loyiq. Hech qanday ehson bermay kattadan-kichik, hammani shod qiladi. Hech qanday hadya qilmay, kishilarning g‘amini tarqatadi. Tavoze’ va odob egallariga hamma ta’zim qiladi va hurmat bildiradi”.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. 29 may 1999 yil.

2. “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonun. 2015 yil 4 sentabr.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017 yil 7 fevraldaggi PF-4947-sonli Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 3 iyunda PQ-3031-sonli Qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 noyabr, PQ-4877-sonli “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvar PF-5924 sonli “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 oktabr PF-6099 sonli “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni.

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 4 mart, 122-sonli “Sport turlari bo‘yicha terma jamoalar tarkibiga sportchilarni saralab olish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori.

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 7 avgust, 468-sonli “2025 yilda O‘zbekistonda yoshlar o‘rtasidagi IV yozgi Osiyo o‘yinlarini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 19 noyabr, 735-sonli “Aholining sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash va jismoniy faolligini oshirishga doir qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori.

**II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar:**

11. Бауэр О.П. “Организация и методика проведения подвижных игр” “Подвижные игры: организация и методика проведения”. – М., 2004г, 9-28стр.
12. Былеева Л.В. “Подвижные игры. Практический материал”. Учебное пособие для студентов вузов и ссузов физической культуры. – М.: СпортАкадем Пресс, 2002г., 279 стр.
13. **Былеева Л.В.** “Подвижные игры: Практический материал”. Учеб. пособие. – М.: ТВТ Дивизион, 2005г., 277 стр.
14. Жуков М.Н. “Подвижные игры”. Учебник для студентов пед. вузов. 2-е изд., стереотип. – М.: Академия, 2004г., 160 стр.
15. Курбанова М.А. “Использование народных подвижных игр при отборе и тренировке юных волейболистов на этапе начальной подготовки”. Автореф. дис.... канд. пед. наук. – Т., 2006г., 23 стр.
16. Луткова Н.В., Мишина Л.Н. “Подвижные игры как средство решения педагогических задач в различных звеньях физического воспитания”. Учебно-методическое пособие / – СПб.: СПбГАФК, 2003г., 83 стр.
17. Мамытов А., Наралиев А.М. “Подвижные и национальные игры”. Программа для студентов Кыргызского государственного института физической культуры. – Бишкек, 1998г., 8стр.
18. Nasriddinov F.N., Qosimov A.Sh. “O‘zbek xalq milliy o‘yinlari”. 1 to‘plam. -Т., 1993y., 27bet.